

## 5 TA TASHABBUS AMALDA VA GURUH TALABALARINING DOIMIIY E'TIBORIDA!

Bugungi kunda yoshlar uchun imkoniyatlar kengayib, ularning kelajakda malakali kadr va bilimli inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, oxirgi yillarda yoshlarning talaba bo'lishlari uchun yangidan-yangi zamonaviy va istiqbolli ta'lim yo'nalishlari tashkil etildi. Shunday yo'nalishlardan biri Urganch davlat universitetida tashkil etilgan "Menejment: turizm biznesini boshqarish" va "Menejment: madaniy merosni boshqarish" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'lib, ularga 2020-yildan bilimli talabalar qabul qilindi.

"Menejment: turizm biznesini boshqarish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bugungi kunda istiqboli porloq va yuqori bo'lgan yo'nalish sifatida universitetning Turizm va iqtisodiyot fakultetida tashkil etilib, ushbu yo'nalishga kirgan talabalar jami 2 ta guruhga ajratilib, 201-TBB va 202-TBB guruhlarida tahsil olmoqdalar. Birinchi guruhda 26 nafar va ikkinchi guruhda 25 nafar talabalar o'qiydi olishmoqda.

Men 201-Menejment: Turizm biznesini boshqarish guruhi murabbiyi sifatida talabalar bilan 2020-yilning oktabr oyidan beri samarali ishlab kelmoqdaman. Guruhdagi talabalarning hulq-atvori va qiziqishlarini aniqlab, ular bilan izchil doimiy ravishda muloqot qilib kelaman. Ularning yashash hududi 24 nafari Xorazm viloyatiga (faqat Gurlan, Yangiariq va Tuproqqal'a tumanlaridan talabalar yo'q) bo'lib, qolgan 2 nafari Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l va Beruniy tumaniga to'g'ri keladi. Talabalarning 10 nafari qiz-talabalar va qolgan 16 nafari o'g'il-talabalarni tashkil etadi. Ularni kelajakda eng yaxshi inson qilib etishtirish maqsadida talabalarimga doimiy ravishda odob-axloq qoidalarini tushuntirib kelaman.

Talabalarim bilan har haftada bir marta Prezidentimizning 5 tashabbusi doirasida turli tadbirlarni amalga oshiraman va ushbu tashabbus bandidagi ish va faoliyatlarni haqiqiy o'z ko'zlari bilan ko'rishlari uchun turli joylarga sayohat qildirib kelmoqdaman. 2021-yil boshidan hozirgi kungacha guruhim talabalarim bilan ko'pgina joylarga sayohatlarni uyushtirdim. Bu 5 ta tashabbusning quyidagi bandlariga mos keladi:

**- birinchi tashabbus. yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarish.** 9-martda guruhim talabalar bilan Urganch sur'atlar galeriyasiga tashrif buyurdik. Tashrif davomida talabalar tayyor va chizilgan sur'atlarni tomosha qildilar, turli rasmlardan namunalar, haykallarni ham ko'zdan kechirdilar. Natijada, ularda 5 ta tashabbusning rassomchilik sohasiga bo'lgan qiziqishlari o'sdi.

Guruhimda tahsil olayotgan talabalardan A.Axmedov bemalol gitara chala oladi, shuningdek F.Manonova va F.Musayevlar pianinani chalib, turli musiqalarni kuylay oladilar. Bugungi kunda musiqa to'garagiga A.Axmedov qatnab, o'zining bilim va tajribasini oshirmoqda.

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini aniqlash doirasida 16-martda universitet Madaniyat saroyida "Navro'z" umumxalq bayramiga bag'ishlab "Mening Navro'zim" nomli qizlar bellashuvi o'tkazilib, unda shaxsan men hakamlar hay'ati raisi sifatida ishtirok qildim. Hakamlar hay'ati tarkibida k.o'q.G.Aliyeva, k.o'q.D.Matyakubova, o'q.Z.Abdikarimova va kutubxona xodimasi D.Masharipovalar ham ishtirok qildilar. Ushbu bellashuvda fakultetning birinchi bosqichida o'qiyotgan jami 9 nafar talaba-qizlar qatnashdilar. Mazkur bellashuvlar qiz-talabalar 3 ta shart, ya'ni o'zini tanishtirish, bayram bo'yicha savollarga

javob berish va erkin mavzu bo'yicha bellashdilar. Guruhim talabasi B.Komilova barcha har bir shartlardan eng yuqori 5 ballni qo'lga kiritib, barcha ishtirok qilgan qizlar orasida jami eng yuqori 75 ball bilan "Eng faol talaba" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Boshqa ishtirok qilgan qiz-talabalar ham boshqa shartlar bo'yicha g'olib bo'lishib, faxriy yorliq bilan taqdirlandilar.

**- ikkinchi tashabbus. yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish.** Bugungi kunda guruhimda turli sport to'garagiga Sh.Maxsudov va A.Xayitboyevlar muntazam ravishda qatnab kelmoqdalar. Hamda fakultetda sportning futbol turini o'tkazish bo'yicha "Dekan kubogi" tuzilib, unda qatnashuvchi jamoalar soni 26 nafarni tashkil etadi. Shu jamoalar ichida guruh talabalaridan A.Xayitboyev, A.Ahmedov, Sh.Maqsudov, F.Alimov, J.Qurbanov, B.Davletov va Sh.Habibullayevlar guruh nomidan ishtirok qiladilar.

Guruhimdagi barcha talabalar sportga qiziqadi, qiz-talabalarim ham sportning ko'pgina turlari bilan shug'ullanib keladi.

**- uchinchi tashabbus. aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish.** Bu soha bugungi kunda keng rivojlanib, uning tarmoqlari ham zamonaviylashib bormoqda. Bu borada talabam F.Manonova "DATA PRO" o'quv markazida tashkil etilgan veb-dizayn to'garagiga qatnab kelmoqdalar. Hamda, shu talaba bilan birgalikda talaba N.Yusupova TATU Urganch filialida axborot texnologiyalarini o'zlashtirish bo'yicha tashkil qilingan kursda faol qatnashib kelmoqdalar.

25-fevralda guruhim talabalarini Urganch shahridagi Darital majmuasi tarkibidagi zamonaviy axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan "DATA PRO" o'quv markaziga olib bordim. Talabalar bu yerda markazdagi imkoniyatlar, qilingan innovatsiyalar bilan ham tanishdilar. Hamda ularning axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlari kengaydi.

**- to'rtinchi tashabbus. yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish.** Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish uchun ularni turli sohalarga qiziqtirish hisoblanadi. Buning uchun ular fan va sohalarning ko'pgina qirralarini o'zlashtirishlari talab qilinadi. Bu borada guruhdagi aksariyat turli to'garaklarga a'zo va ularga muntazam ravishda qatnashib kelmoqdalar. Xususan, talabalardan rus tili to'garagiga F.Musayeva, N.Yusupova, B.Matyaqubov, D.Ganjaboyeva, I.Otaxonov, N.Otanazarova, M.Raximboyev, B.Qo'chqarov, Sh.Duschanova, ingliz tili to'garagiga F.Musayeva, J.Musayev, J.Qurbonov, I.Otaxonov, B.Davletov, M.Raximboyev, F.Alimov va S.Egamberdiyeva, nemis tili to'garagiga B.Komilova, koreys tili to'garagiga D.Qodirova, S.Raximov, Sh.Habibullayev, S.Nazirbayev, fransuz tili to'garagiga Z.Ollaberganova, buxgalteriya hisobi va matematika fani to'garagiga T.Yusupov, avtomobillarni ta'mirlash to'garagiga Z.Egamberganov doimiy ravishda qatnashib kelmoqdalar.

Eng asosiy masala talabalarda kitobxonlik madaniyatini oshirishdir. Bu borada 1-fevralda talabalarimni universitet axborot-resurs markaziga olib bordim hamda tashrif davomida ularning kitobxonlik bo'yicha qiziqishlari yanada kengaydi.

11-fevralda talabalarim bilan Urganch shahridagi universitetga tegishli bo'lgan "Qatog'on qurbonlari" muzeyiga tashrif buyurdik va u yerda talabalar qatog'onlik siyosati va muzey faoliyati haqidagi kitoblar bilan yaqindan tanishdilar.

23-martda talabalarim bilan Xorazm viloyati axborot-kutubxona markaziga safar qildik. U erda talabalar kutubxona faoliyati, kitob o'qish va kitobxonlik madaniyati haqida muhim ma'lumotga ega bo'ldilar.

Guruhim talabasi F.Musayeva 26-martda universitet miqyosida o'tkazilgan "Yosh notiqalar" ko'rik tanlovida faol ishtirok qildi va tanlov so'ngida faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Shu kuni fakultetining 1.14-auditoriya xonasida 201-202-"Menejment: turizm biznesini boshqarish" va 201-202-"Menejment: madaniy merosni boshqarish" guruhi talabalariga axborot-resurs markazi, kutubxonalarga elektron a'zo bo'lish jarayoni haqida "Turizm va mehmonxona xo'jaligini boshqarish" kafedrasini mudiri, dots.B.Ollanazarov va ARM xodimi D.Masharipovalar bilan birgalikda tushuntirish ishlarini olib bordim.

30-martda talabalarim bilan Urganch shahrida joylashgan "Avesto" muzeyiga tashrif buyurdik. U yerda talabalar Avesto kitobining yozilish tarixi va u haqidagi muhim ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

- **beshinch** tashabbus. **xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash.** Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash borasida talabalarim bilan viloyatdagi turistik subyektlarga safarlarni uyushtirdim. Xususan, 4-fevralda talabalar bilan Xiva shahriga ekskursiyaga bordik. Talabalar sayohatlari davomida Pahlavon Mahmud maqbarasi, Islomxo'ja minorasi va Tosh hovli singari tarixiy obidalarni tomosha qildilar va ushbu binolar haqida muhim ma'lumotlarni ham to'pladilar. Hamda 2-martda talabalarim bilan viloyatdagi turizm sohasida turistlarni ko'p jalb qilayotgan "O'zbekiston" va "Bravo lyuks" mehmonxonasiga tashrif buyurdik. Bu yerda talabalar mehmonxonalarining ish faoliyati tartibi, mehmonlarni qabul qilish va xonalar bilan ishlash jarayoni bilan tanishdilar.

Shuningdek, 12-fevralda fakultet faollar zalida "Khorezm tour & travel" firmasi rahbari J.Jumaniyazov guruhim talabalariga "Turfirmani tashkil qilish va uni samarali yuritish" mavzusida mahorat darsini olib bordi. Tadbirda talabalar faol qatnashib, ularning bilimlari yanada mustahkamlandi. Ayniqsa, qiz-talabalarning qiziqishlari o'sib, kelajakda shu soha mutaxassislari bo'lish imkoniyatlari yanada kengaydi.

18-fevralda talabalarni Urganch shahrida joylashgan yoshlar markaziga tashrif buyurdik va u yerda talabalar harbiy jangovor vositalari bilan tanishdilar hamda ularning harbiy vatanparvarlik ruhida bilimlari o'sdi.

Umuman, men 5 tashabbus doirasida ishlar va vazifalarni amalda qo'llab, guruh talabalarini doimiy ravishda qiziqtirib kelmoqdaman.

**D.Xudayberganov, UrDU Turizm va iqtisodiyot fakulteti  
201-"Menejment: Turizm biznesini boshqarish" guruhi murabbiyi**